

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari	144
M.O.Gopirov	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США	148
Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati	153
K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova	
Iqlim o'zgarishi sharotida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha)	157
O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari.....	172
D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev	
Iqlim o'zgarishi sharotida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida)	180
E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlari	186
Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojidinov, X.I.Saidova	
Yer resurslarini majmuali tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
N.O'.Komilova	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlari.....	212
M.M.Atajonov	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari	217
A.A.Isayev, S.A.Ergashev	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikkili ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish	220
M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlari	224
D.M.Abduraxmonov	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	230
D.B.Kosimov	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari	234
H.N.Naimov	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida)	239
M.H.Otamirzayeva	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar	243
U.Sh.Uktamov	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
S.M.Xudoyberdiyeva	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni	252
T.D.Komilova	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish	257

ETNOEKOLOGIK TADQIQOTLARNING IJTIMOIY-GEOGRAFIK YO'NALISHLARI VA BOSQICHLARI

СОЦИАЛЬНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ЭТАПЫ ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

SOCIO-GEOGRAPHICAL DIRECTIONS AND STAGES OF ETHNOECOLOGICAL RESEARCH

Komilova Nargiza O'rinnovna¹

¹Farg'onan davlat universiteti, geografiya kafedrasini dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada etnoekologik madaniyat ham, umumiylar madaniyatning tarkibiy qismi sifatida madaniyatshunoslik va etnomadaniyat yo'nalishlarida keng o'rganilishi masalalari ko'rib chiqilgan. Geografik yo'nalishida etnoekologik tadqiqotlarda asosiy e'tibor etnoslarning atrof-tabiiy muxit bilan ongli faoliyati vositachiligidan bo'ladigan aloqalarini o'rganishga qaratilganligi asoslangan. Bunday tizimli aloqalarning pirovard natijasida yuzaga keladigan va geografiya yo'nalishidagi etnoekologik tadqiqotlarning markaziga qo'yiladigan asosiy obyekt sifatida etnoekologik madaniyat va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish batafsil ko'rib shiqilgan. Shuningdek maqolada etnoekologik madaniyatning yo'nalishlari va bo'limga atroficha taxlil etilgan.

Annotatsiya

В статье этноэкологическая культура как составная часть общей культуры широко изучается в областях культурологии и этнокультуры. Этноэкологические исследования географического направления направлены на изучение взаимоотношений этносов с природной средой посредством их сознательной деятельности. Подробно рассмотрен анализ этноэкологической культуры и ее компонентов как основного объекта, который является основным объектом этноэкологических исследований по направлению географии, являющимся результатом таких системных отношений. Также в статье подробно анализируются направления и разделы этноэкологической культуры.

Abstract

In the article, ethnoecological culture as an integral part of general culture is widely studied in the fields of cultural studies and ethnosculture. Ethnoecological studies of the geographical direction are aimed at studying the relationship of ethnic groups with the natural environment through their conscious activities. The analysis of ethnoecological culture and its components as the main object, which is the main object of ethnoecological research in the field of geography, which is the result of such systemic relationships, is considered in detail. The article also analyzes in detail the directions and sections of ethno-ecological culture.

Kalit so'zlar: madaniyat, etnik madaniyat, ekologik madaniyat, etnomadaniy aloqalar, etnos, geoetnik madaniyat, qadriyatlar geografiyasi, din geografiyasi.

Ключевые слова: культура, этническая культура, экологическая культура, этнокультурные отношения, этнос, геоэтническая культура, география ценностей, география религии.

Key words: culture, ethnic culture, ecological culture, ethnocultural relations, ethnicity, geoethnic culture, geography of values, geography of religion.

KIRISH

Etnoekologik madaniyat ham, umumiylar madaniyatning tarkibiy qismi sifatida madaniyatshunoslik va etnomadaniyat yo'nalishlarida keng o'rganilmoqda. Bugungi kunda madaniyat tushunchasiga berilayotgan ta'riflar soni 500 tadan ortgan bo'lsada, hanuzgacha yagona to'xtamga kelinmaganligi, ayniqsa, bu iborani g'arb va sharqda turlicha talqin etilishi diqqatga sazovordir. G'arbda, madaniyat atamasi lotincha «cultura» so'zidan olingan bo'lib, dastlab qishloq xo'jaligi ekinlari va uy hayvonlarini madaniylashtirish jarayoniga nisbatan, keyinroq esa, «sivilizatsiya» (fuqaroviylar) so'zining sinonimi sifatida ishlataldi. Sharqda esa, madaniyat atamasi arab tilidagi «madaniy» shaharlik iborasiga yaqin so'z bilan ifodalanib, ko'proq ziyoli inson ma'nosiga yaqin turadi. Har ikki holda ham, madaniyat deyilganda kishilik jamiyatni faoliyati davomida yaratilgan va yaratilayotgan barcha yutuqlar tushunilishini anglash qiyin emas.

Madaniyatni, jumladan etnoekologik madaniyatni geografik o'rganish yo'nalishlari keyingi yillarda gumanitar geografik tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallamoqda.

Mazkur tadqiqotlarning metodologik jihatidan to'g'ri yo'nalishini belgilashda Y.I.Gladkiy (2003) tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi konsepsiya diqqatga sazovordir. Unga ko'ra, «etnoekologiyaning geografik qanotida- etnoslarning ekologik muhit bilan bo'ladigan barcha aloqalari emas, balki ularning faqatgina ongli faoliyati vositachiligidan kelib chiqadigan aloqalarini

o'rGANADI». Bunday tushunishda etnoekologiya biologiyalashgan yoki sotsiologiyalashgan talqinlarga mos kelmaydigan alohida maqomga ega bo'ladi. Har qanday etnos, birinchidan, tirik jonzotlar yig'indisi bo'lib, uning yashash tarzi tabiatning ko'r-ko'rona, ongsiz kuchlari bilan o'zaro aloqasida namoyon bo'ladi. Bu yo'naliishdagi izlanishlar biologik fanlarni jumladan, bioekologiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ikkinchidan, etnos - ijtimoiy mavjudotlarning alohida jamoasi hisoblanib, bu jihatidan u sotsiologik tadqiqotlarning jumladan, ijtimoiy ekologiyaning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Uchinchidan, etnos – tabiatning o'ziga xos mavjudotlarining umumiy yig'indisi hisoblanib, hayot tarzi sifatida ularning ongli faoliyatiga xizmat qiladi. Bunday faoliyatni o'rganish geografiya fanining o'rganish obyekti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shunday qilib, geografik yo'naliishida etnoekologik tadqiqotlarda asosiy e'tibor etnoslarning atrof-tabiyyi muxit bilan ongli faoliyati vositachiligidagi bo'ladigan aloqalarini o'rganishga qaratiladi. Bunday tizimli aloqalarning pirovard natijasida yuzaga keladigan va geografiya yo'naliishidagi etnoekologik tadqiqotlarning markaziga qo'yiladigan asosiy obyekt sifatida etnoekologik madaniyat va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish belgilandi.

A.G.Drujininning geografik madaniyatning 14 ta turini ajratishni taklif qiladi. Ulardan madaniyatning geotizimlarga ta'sirini o'rganish (5), geoetnik madaniyat (7), an'analar va xulq-atvor geografiyasi (9), qadriyatlar geografiyasi (11), din geografiyasi (12) kabi turlar geoekologik yo'naliishdagi izlanishlar mohiyatini belgilashga mos keladi.


Y.A.Vedenin (2004) madaniy merosni saqlash va undan foydalanish masalalarini hal qilishda ahamiyatli bo'lgan 3 ta yondashuvni ajratadi: a) genetik (meros-milliy va mintaqaviy madaniyatning o'ziga xosligini saqlovchi, tarixiy xotirani tashuvchisi); b) ekologik (meros-jamiyat va biosferaning barqaror rivojlanishi asosi); v) geografik (meros-dunyoni, mamlakatlar, mintaqalar, etnoslarning madaniy va tabiiy xilma-xilligini saqlash asosi). Bunday yondashuning biz uchun ahamiyatli jihatni madaniyat va madaniy merosga ekologik-geografik yo'naliishdagi tadqiqot obyekti sifatida qaralishidir. Madaniyatga milliy va mintaqaviy yondashuv etnik madaniyatni yuzaga keltiradi. Etnomadaniyat esa - bu madaniyatni ma'lum etnosga xos bo'lgan xususiyatlarni saqlab qolish maqsadida o'zlashtirilgan ko'rinishlar majmuidir.

Etnomadaniyat ilmiy yo'naliishida tahlil etiladigan masalalar orasida ma'naviy merosning asrlararo shakllangan, avloddan-avlodga o'tib, odatga aylangan qismi «an'anaviy xalq madaniyati»ga e'tibor qaratiladi. M.Murodov va uning hammualliflarining ta'kidlashicha, «bu madaniyat-etnoslarning tarixiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan, ularning aqliy-ijodiy faoliyati natijasida taraqqiy etgan, ming yilliklar mobaynida ajdodlar fikrlari, tajribalari, orzu-istiklari, an'analar va qadriyatlarni o'zida birlashtirgan, avloddan-avlodga o'tib, asrlar osha sayqallanib, murakkablashib borgan bebaho meros» hisoblanadi.

Etnomadaniyat shakllanishida tabiiy-geografik omilning o'rni yuqori bo'lgan turlarini (tabiatdan foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va xk.) umumiy ekologik madaniyat bilan uyg'unlashtirish natijasida etnoekologik madaniyat yuzaga keladi. Etnoekologik madaniyatga berilgan ko'plab ta'riflarni umumlashtirgan holda unga quyidagicha ta'rif berish mumkin, Etnoekologik madaniyat - umumiy madaniyatni tarkibiy qismi bo'lib, etnoslarning tabiat bilan bo'ladigan ongli faoliyati natijasida yuzaga kelgan qadriyatlari, an'analar, urf-odatlar va faoliyat turlarini o'zida jamlab, etnos bilan u yashaydigan landshaftning murakkab o'zaro aloqasi jarayonida shakllanadi va muayyan geografik sharoitda etnoslarning tabiat bilan barqaror munosabatini ta'minlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalqimiz etnoekologik madaniyatiga yuksak baho berib, M.Murodov shunday yozadi: «Bugungi kunda tabiat to'g'risidagi ekologiya ilmi bilan shug'ullanayotgan o'nlab fan dargoxlari-yu, yuzlab olim-tadqiqotchilar olib borayotgan ilmiy ishlari xulosalar, natijalari ming yillar muqaddam ishlab qo'yilganligini moddiyunchi, el madaniyati tarixidan bexabarlar bilmaydilar».



1-rasm. Etnoekologik madaniyatni geografik tadqiq etish yo'nalishlari [1].
Rasm muallif tomonidan tuzilgan.

Etnoekologik madaniyat etnos bilan tabiatning o'zaro aloqasi jarayonida shakllanadi, agar u ekotsentrik yo'nalishda tabiatga to'g'ri oqilona, ekofil munosabatni shakllantirishga yordam bersa, etnos va tabiatning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi. Aks holda etnosning texnokratik, ekofob dunyoqarash bilan shakllangan madaniyati ekologik tanazzulni yuzaga keltirishi ham mumkin.

Mazkur maqolada etnoekologik madaniyatning barcha yo'nalishlarini emas, balki, geografiya fanining o'r ganish obyekti bo' ladigan 3 ta metodologik talabga javob beradigan, ya'ni hududiy mazmunga ega, kartalaشتirish imkoniyati mavjud va uni tadqiq etish geografik qobiq uchun yangi bilimlar beradigan jihatlar o'r ganildi.

Natijada etnoekologik madaniyatni moddiy yo'nalishidan an'anaviy dehqonchilik madaniyati, suv resurslaridan foydalanish va aholi maskanlarini bунyod etish madaniyati tanlab olindi. Etnoekologik madaniyatni ma'naviy yo'nalishlaridan esa, joylarga nom berish, diniy e'tiqodni muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar tashkil etish madaniyati hamda etnoekologik madaniyat namunalaridan barqaror rivojlanishning landshaftli rejalaشتirish, innovatsion dasturlarini yaratish va ekologik ta'lim tarbiyaning hududiy jihatlarini o'r ganishga asosiy e'tibor qaratildi.

Tadqiqot davomida fanlar va ilmiy yo'nalishlardagi uslub va usullardan bosqichma-bosqich foydalanib boriladi. Tadqiqot yo'nalishlari tizimini chiqurlashib boruvchi to'rtta bosqichga bo'lib o'r ganish taklif qilingan [1].

Birinchi bosqichda tadqiqotning umumiyl metodologik jihatlarini belgilab beruvchi tabiiy va ijtimoiy fanlarning mavzuga aloqador jihatlar qarab chiqiladi. Etnoekologik madaniyatning yuzaga kelishiga turki bo'lgan geografik, biologik, ekologik omillar tabiiy fanlar blokida, tarixiy, etnologik va falsafiy omillar, ijtimoiy fanlar blokida tadqiq etib boriladi. Ularga tabiiy fanlar blokidan geografiya, ekologiya, biologiya fanlari kiritilsa, ijtimoiy bloqdan etnologiya, madaniyatshunoslik va falsafa fanlari kiritiladi.

Ikkinci bosqichda tadqiqot obyektining umumiyl (ham tabiiy ham ijtimoiy) tomonlari yoritilib, unga tizimli yondashuvni ta'minlab beruvchi yo'nalishlardagi usullar va yutuqlar o'r ganiladi.

Obyektning etnomadaniy jihatlarini shu bosqichda olib beriladi. Dastlab etnoekologik madaniyatning tarqalish hududi va mintaqalari aniqlab olinadi. Bu soha etnologiya va geografiya oralig'iда shakllangan etnogeografiya yo'nalishida o'rganiladi.

Uchinchi bosqichda etnoekologik madaniyatning tarkibiy qismlarini, uning hududiy jihatlarini bevosita etnoekologiya, agrar etnologiya yo'nalishlarida asosiy e'tibor, xalqlarning qishloq xo'jaligi sohasidagi tajriba, ko'nikma va malakalarini o'rganishga qaratiladi. Shuningdek, xalqlarning moddiy madaniyatidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini yer va suvdan foydalanish, qishloq qurilishidagi mintaqaviy farqlar va ularning tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy asoslari o'rganiladi [3, 4].

Ko'p ming yillik dehqonchilik va irrigatsiya tarixiga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi uchun, xo'jalik-madaniy tiplari va tarixiy geografik viloyatlar haqidagi ta'lilotga asoslanib, ajratilgan etnoekologik rayonlardagi yer fondi, qishloq xo'jaligi yerlari va ekin maydonlari tarkibini va uni o'zgarishini o'rganish va suvdan foydalanish madaniyatini ekologik nuqtai-nazardan baholash to'g'ri ilmiy, xulosalar chiqarishga, hozirda mayjudgeokologik muammolarning mohiyatiga to'g'ri tashhis qo'yishga imkon beradi [6].

Etnobotanika, etnozoologiya – ilmiy yo'nalishlarida, alohida etnik guruhlarni ekosistemaning o'simlik, hayvonot dunyosi o'rtaida yuzaga keladigan muammolarni o'rganadi. Mazkur yondashuvda ekosistemaning tarixiy o'zlashtirilish jarayoni, jamoaning ekologik muvozanatni saqlashi, o'simliklar va hayvonlarni an'analar va innovatsiyalarga mos holda moddiy va ma'naviy hayot doirasida moslashtirish, foydalanilishi (dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, baliqchilik va boshq.) usullari o'rganiladi.

Shu bilan birga, joy nomlarini o'simliknomiga qo'yilish holatlari keng tarqalgan. Dunyodagi o'simliklarga qo'yilgan nomlar orasida Farg'ona va Buxoro shahri nomlari eng ko'p uchrashi ham fikrimizning dalilidir [2, 3, 4].

XULOSA

Tabiat va jamiyat o'rtasidagio'zaro munosabatlarini barqaror-lashtirish, yuzaga kelayotgan mintaqaviy ekologik muammolarni hal etishda mahalliy xalqlarning an'anaviy tabiatdan foydalanish madaniyatini o'rganuvchi etnoekologik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj va talab kundan kunga ortib bormoqda. Biroq, uzoq yillar mobaynida xukmron bo'lgansho'ro mafkurasi, «geografik determinizm» da ayylanishdan qo'rqish hissi bu yo'nalishning ilmiy-nazariy asoslarini yetarlicha rivojlantirish imkonini bermadi. Etnoekologik tadqiqotlarning geografik yo'nalishlarini nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Geografiya yo'nalishidagi etnoekologik tadqiqotlarning obyekti sifatida etnoekologik madaniyatning barcha yo'nalish va elementlari emas balki, geografiyaning 3 ta metodologik talabga javob beradigan, ya'ni hududiy mazmunga ega, kartalashtirish imkoniyati mavjud va uni tadqiq etish geografik qobiq uchun yangi bilimlar beradigan yo'nalishlari tanlab olinadi. Shunga ko'ra, etnoekologik madaniyatni moddiy yo'nalishidan yer-suv resurslaridan foydalanish va aholi maskanlari buniyod etish, ma'naviy yo'nalishlaridan esa, joylarga nom berish, diniy e'tiqodni muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolar tashkil etish madaniyati hamda, etnoekologik ta'lif tarbiyaning hududiy jihatlarini o'rganish ajratib olinishi shart.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмадалиев Ю.И., Комилова Н.Ў. Этноэкологик маданиятнинг худудий жиҳатлари. Монография. Фарғона, "Poligraf-servis", 2020 й.
2. Бабур-наме, Записки Бабура – Т.: Узбекистан, 1982. – 256 с.].
3. Клокова К.Б. Традиционное природопользование коренных малочисленных народов севера (географические и социально-экономические проблемы).: Автореф. дис. ...докт. географ. наук.- М., 1998-30с. //www.rangifer.org/gumilev/k12_2.shtml#06;
4. Коэлов В.И., Покшишевский В.В. Этнография и география // Сов.этнография. 1973. N 1,-C.3-14.;
5. Komilova Nargizahon Urinovna. Geographical roots and basic concepts of ethnoecology. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (4), 1748-1750. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=4&article=295>.
6. Кочурев Б.И., Геоэкология: экодиагностика и эколого-хозяйственный баланс территории. - Смоленск: СГУ, 1999. - 154 с. (<http://www.izdatgeo.ru>).